


**PAXTAKOR TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI
TOMONIDAN SADRIDDIN AYNIIY 148 YILLIGI
MUNOSABATI BILAN**

"IKKI XALQ FARZANDI" DEB NOMLANGAN



Sadriddin Ayniy (1878-1954)

Yozuvchi, olim va jamoat arbobi Sadriddin Saidmurodzoda Ayniy 1878 yili Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanida tug'ilgan. O'zbek va tojik tilida yozgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi prezidenti (1951—54), O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi (1943), Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950). Avval eski maktabda (1884—87), keyin madrasalar: Mir Arab (1890—91), Olimxon (1892—93), Badalbek (1894—96), Hoji Zohid (1896-99), Ko'kaldosh (1899-1900)da tahsil olgan. Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iyning hamda jadid ma'rifatparvarlarining asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniy Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, ommani ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat «Yoshlar tarbiyasi» (1909) darsligini tuzadi. «Yosh buxoroliklar» harakatida faol qatnashadi.


1918—21 yillarda tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi. «Buxoro jallodlari» (1922) povesti, «Buxoro mang'it amirligining tarixi» (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. «Odina», «Qiz bola yoki Xolida» (1924), «Tojik adabiyotidan namunalar» (1926), «Qul bobo yoki ikki ozod» (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. Ayniy tojik va o'zbek adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida yetishib chiqqan 200 dan ortiq shoir, tarixchi, olim, tazkiranavislar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi.

Ayniy 1927-29 yillarda yirik romani «Doxunda»ni tojik tilida nashr ettirdi. 1934 yilda esa o'zbek tilida «Qullar» romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. Ayniyning «Eski maktab» (1935) asarida eski maktabdagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator hajviy asarlari, «Yana bu qaysi go'rdan chiqdi», «Puling halol bo'lsa, to'y qil» (1924), «Mashrab bobo», «Ye, to'nim» (1925), «Bilganim yo'q», «Kengash» (1926) kabi o'zbekcha feletonlari, hajviy she'r va maqolalari, ayniqsa, «Sudxo'rning o'limi» (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini ko'rsatdi.

Muqanna va Temurmali boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat «Esdaliklar»ida (1949—54) Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi. A. adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida «Firdavsiy va uning «Shohnoma»si haqida» (1934), «Kamol Xo'jandiy», «Shayxurrais Abu Ali ibn Sino» (1939), «Ustod Rudakiy» (1940), «Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy» (1942), «Alisher Navoiy» (1948), «Zayniddin Vosifiy» (uning «Badoe ul-vaqoe» asari haqida), «Mirza Abdulqodir Bedil», Muqimiy, G'afur G'ulom va Said Nazar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligi,

«Fors va tojik tillari haqida», «Tojik tili» kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea bo'ldi. Ayniyni «Doxunda», «Qullar», «Sudxo'ring o'limi» va «Esdaliklar» asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalaridagi bir qator shahar, tumanlar, qishloqlar, ko'chalar, maktablar, kutubxonalar, san'at va madaniyat muassasalari Ayniy nomiga qo'yilgan. Samarqandda Ayniy yodgorlik uy-muzeyi ochilgan (1967).

Sadriddin Ayniy



Asl ismi	tojikcha: Садриддин Айни
Tavalludi	15-aprel 1878-yil Saktari qishlog'i, Buxoro , Buxoro amirligi (hozir O'zbekistonning Buxoro viloyati G'ijduvon tumani)
Vafoti	15-iyul 1954-yil (76 yoshda) Dushanbe, Tojikiston SSR, SSSR (hozir Tojikistonning Dushanbe shahri)
Taxallusi	Ayniy
Kasbi	yozuvchilik , she'riyat

Ijod qilgan tillari [Tojik tili^{\[1\]}](#), [O‘zbek tili^{\[1\]}](#) va [Fors tili^{\[2\]\[1\]}](#)

Fuqaroligi [Rossiya Imperiyasi](#) va [SSSR](#)

Janr [Nasr](#)

Mukofotlari



[Tojikiston](#) valyutasining 5 [somoniy](#) kupyurasidagi Sadriiddin Ayniy portreti. 1917—1951-yillarda Sadriiddin Ayniy yashagan [Samarganddagi](#) uy (hozir uy-muzey).

Sadriiddin Ayniy ([tojikcha](#): *Садриддин Айни*; haqiqiy ismi **Sadriiddin Said-Murodzoda** ([tojikcha](#): *Садриддин Саид-Муродзода*); [1878-yil](#), [15-aprel](#), Soktare qishlog‘i, [Buxoro amirligi](#) — [1954-yil](#), [15-iyul](#), [Stalinobod](#), [Tojikiston SSR](#), [SSSR](#)) — [tojik](#) va [o‘zbek](#) sovet [yozuvchisi](#). [Shoir](#), davlat va jamoat [arbobi](#). [Sovet](#) davridagi tojik adabiyoti asoschisi. [tojik](#) va [o‘zbek](#) tillarida ijod qilgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti ([1951—1954](#)), O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a‘zosi ([1943](#)), Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi ([1940](#)), filologiya fanlari doktori ([1948](#)), professor ([1950](#)). Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi ([1998](#))^[3], qator sobiq [SSSR](#) orden va medallari sohibi. 2001-yilda o‘zining beqiyos iste’dodi, o‘lmas ijodiy merosi bilan o‘zbek milliy madaniyati rivojiga hissa qo‘shgani uchun O‘zbekiston Respublikasining „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan^[4].

Biografiya[\[tahrir\]](#) | [manbasini tahrirlash](#)

Yoshlik yillari[\[tahrir\]](#) | [manbasini tahrirlash](#)

Sadriiddin Said-Murodzoda [1878-yilning 15-aprel](#) kuni [Buxoro amirligining](#) Soktare qishlog‘ida, [tojik](#) oilasida tug‘ilgan^[5]. Uning o‘g‘li Ayniy Kamol, taniqli jurnalist. Otasi Said Murodxo‘ja dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, o‘zi savodli bo‘lgani uchun farzandlarini bilimli qilishga intilgan. Shuning uchun o‘g‘li Sadriiddin Ayniyni olti yoshida

o'z qishlog'i madrasasiga yuboradi. Ayniy „Eski maktab“ qissasida o'sha madrasada o'qiganini ta'riflab beradi.

[1884—1887](#)-yillarda eski maktabda o'qigan. 1889-yilda Buxoro va uning atrofini qamrab olgan vabo uni qirq kun ichida otasidan ham, onasidan ham ajratdi. Ayniy 12 yoshida Buxoroga keladi^[6]. Ayniy kabi kambag'allarning Buxoro madrasalarida o'qishi juda qiyin edi. Ammo o'zining g'ayrati, ilm talabasi bo'lgani tufayli hayot va o'qishning barcha qiyinchiliklarini yengib, 16 yil Buxoro madrasalarida tahsil olgan. [Buxorodagi](#) Mir Arab (1890—1891), [Olimxon](#) (1892—1893), Badalbek (1894—1896), Hoji Zohid (1896—1899) va Ko'kaldosh (1899—1900) [madrasalarida](#) tahsil olgan.

Faoliyati[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

Dastlab "Sifli", "Muhtojiy" taxalluslarida, 1896-yildan Sadridin Saidmurodxo'ja „Ayniy“ adabiy taxallusi bilan mustaqil she'rlar yoza boshlaydi^[7]. [Ahmad Donish](#) va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iyning hamda [jadid ma'rifatparvarlarining](#) asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. A. Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, ommani ilm-ma'rifatga chaqiruvchi [she'r](#) va [hikoyalardan](#) iborat „Yoshlar tarbiyasi“ (1909) darsligini tuzadi. „[Yosh buxoroliklar](#)“ harakatida faol qatnashadi. Bunday xayrli ishlar [Amir Olimxonga](#) yoqmasdi. Shu sababli u o'qituvchini qamoqqa tashlab, 75 darra urish to'g'risida qaror chiqaradi. Sadridin Ayniy kasalxonada 52 kun davolangach, Samarqandga ko'chib o'tadi. Keyinchalik Olimxon amirlikka qarshi kurashuvchilarni qo'llab, Sovet ittifoqi bilan til birlashtirgan degan ayb bilan Sadridin Ayniyning ukalari Sirojiddin va Muhiddin Xojani vahshiylarcha o'ldirtiradi. Bu voqealardan so'ng Ayniy qalami o'tkirlashib, amirlik tuzumini o'z maqolalari, risolalari, tarixiy-badiiy asarlarida ko'rsatishga harakat qiladi.

1918-yildan xalq ta'limi tizimida va birinchi tojik-o'zbek inqilobiy matbuotida ishlagan. [Buxoro Xalq Sovet Respublikasi](#) tashkil etilgandan keyin (1920) bir muddat konsullikda, so'ngra uning xo'jalik idorasida xizmat qilgan. 1926-yildan Tojikiston Davlat nashriyotida maslahatchi, adabiy muharrir bo'lib ishlagan. 1934-yilda Sovet yozuvchilarining I Butunittifoq qurultoyida qatnashib, SSSR Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi a'zoliciga saylangan. Fan sohasida unga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan va O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi unvonini olgan. Tojikiston SSR FA akademigi bo'lgan, Tojikiston SSR FA birinchi prezidenti (1951—1954).

Sadridin Ayniy 1954-yil 15-iyulda [Dushanbe](#) shahrida vafot etadi^[8]. Hozir Dushanbedagi joylashgan Ayniy maqbarasi ziyoratgoh hisoblanadi. Bu joy hozir Sadridin Ayniy istirohat bog'i deb ataladi.

Adabiy va ilmiy merosi[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

1918—1921-yillarda tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi. „Buxoro jallodlari“ (1922) [povesti](#), „Buxoro mang'it amirligining tarixi“ (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. „Odina“, „Qiz bola yoki Xolida“ (1924), „Tojik adabiyotidan namunalar“ (1926), „Qulbobo yoki ikki ozod“ (1928) kabi [qissa](#), [hikoya](#), [ocherklari](#) muhim ahamiyatga ega.

A. tojik va o'zbek adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida yetishib chiqqan 200 dan ortiq [shoir](#), [tarixchi](#), [olim](#), tazkiranavislar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. A. 1927—1929-yillarda yirik [romani](#) „Doxunda“ni tojik tilida nashr ettirdi. 1934-yilda esa o'zbek tilida „Qullar“ romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. A.ning „Eski maktab“ (1935) asarida eski maktabdagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator [hajviy asarlari](#), „Yana bu qaysi

goʻrdan chiqdi“, „Puling halol boʻlsa, toʻy qil“ (1924), „Mashrab bobo“, „E, toʻnim“ (1925), „Bilganim yoʻq“, „Ken-gash“ (1926) kabi oʻzbekcha [feletonlari](#), 242 hajviy sheʼr va maqolalari, ayniqsa, „Sudxoʻrning oʻlimi“ (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini koʻrsatdi. [Muqanna](#) va [Temur Malik](#) boshchiligidagi [xalq qoʻzgʻolonini](#) aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U toʻrt qismdan iborat „Esdaliklar“da (1949—54) Buxoroning oʻtmish hayoti va oʻsha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi.

A. [adabiyotshunos](#), [tilshunos](#), [sharqshunos](#) olim sifatida „[Firdavsiy](#) va uning „[Shohnoma](#)“si haqida“ (1934), „[Kamol Xoʻjandiy](#)“, „Shayxur-rahis [Abu Ali ibn Sino](#)“ (1939), „Ustod [Rudakiy](#)“ (1940), „Shayx Muslihiddin [Saʼdiy Sheroziy](#)“ (1942), „[Alisher Navoiy](#)“ (1948), „[Zayniddin Vosifiy](#)“ (uning „[Badoye ul-vaqoye](#)“ asari haqida), „Mirza Abdulqodir [Bedil](#)“, [Mugimiy](#) va boshqalar haqidagi asarlari oʻzbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligida, „Fors va tojik tillari haqida“, „[Tojik tili](#)“ kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea boʻldi. A.ning „Doxunda“, „Qullar“, „Sudxoʻrning oʻlimi“ va „Esdaliklar“ asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. [Oʻzbekiston](#) va [Tojikiston](#) Respublikalaridagi bir qator shahar, tumanlar, qishloqlar, koʻchalar, maktablar, kutubxonalar, sanʼat va madaniyat muassasalari A. nomiga qoʻyilgan. Samarqandda A. yodgorlik [uy-muzeyi](#) ochilgan (1967).

Sadriiddin Ayniy [Behbudiy](#) oʻlimiga bagʻishlagan marsiyasida

„Saning tarixi davroning, saning osori urfoning,
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?
Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi,
Va lekin intiqomingni ololurmi, ololmasmu?“ — deb yozgan.

Asarlari[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

- „Esdaliklar“ (tarjimai hol asari);
- „Tahsib us — sibyon“ („Pok bola“);
- „Yoshlar tarbiyasi“ (1909) darsligi;
- „Buxoro jallodlari“ (1922);
- "Odina " (1924);
- „Qulbobo yoki ikki ozod“ (1928);
- „Yetim“ (1940);
- „Sudxoʻrning oʻlimi“ (1939);
- „Eski maktab“ (1935) kabi [qissalar](#),
- „Doxunda“ (1930);
- „Qullar“ (1934) kabi [romanlar](#),
- „Tojik adabiyotidan namunalar“ (1926);
- „Qiz bola yoki Xolida“ (1924);
- „Alisher Navoiy“;
- „Ustod Roʻdakiy“ kabi ilmiy tadqiqotlari va boshqalar.

Mukofotlari[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

-  [Stalin](#) premiyasining ikkinchi darajasi ([1950-yilda](#));
-  3 ta „[Lenin](#) ordeni“ ([ruscha](#): «*Орден Ленина*»);

-  „Qizil Bayroq Ishchi ordeni“ ([ruscha](#): «*Орден Трудового Красного Знамени*»);
- [Tojikiston](#) Sovet Sotsialistik Respublikasida xizmat koʻrsatgan fan arbobi;
- [Oʻzbekiston](#) Sovet Sotsialistik Respublikasi Fanlar [Akademiyasining akademigi](#)
-   „Tojikiston Qahramoni“ unvoni sohibi.

Nishonalar[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)



Sadriddin Ayniyga bagʻishlangan 1958-yilgi SSSR pochta markasi. Sadriddin Ayniyga bagʻishlangan 1968-yilgi SSSR pochta markasi.

- Sadriddin Ayniy tugʻilgan Saktari ([Buxoro viloyati](#), [Gʻijduvon tumani](#)) qishlogʻida uning uy-muzeyi mavjud.
- [Samargand](#) shahrining markaziy qismida Sadriddin Ayniy uy-muzeyi mavjud. Ushbu uyda U 1917-yildan to 1950-yillarning boshigacha yashagan.
- [Dushanbe](#) ([Tojikiston](#)) shahri koʻchalaridan biriga Sadriddin Ayniy nomi berilgan.
- [Samargand](#) ([Oʻzbekiston](#)) shahri koʻchalaridan biriga Sadriddin Ayniy nomi berilgan.
- [Buxoro](#) ([Oʻzbekiston](#)) shahri koʻchalaridan biriga Sadriddin Ayniy nomi berilgan.
- [Bishkek](#) ([Qirgʻiziston](#)) shahri koʻchalaridan biriga Sadriddin Ayniy nomi berilgan.
- [Qozon](#) ([Rossiya](#)) shahri koʻchalaridan biriga Sadriddin Ayniy nomi berilgan.
- Samarqand shahrida Sadriddin Ayniy haykali oʻrnatilgan.
- Dushanbe shahrida „Sadriddin Ayniy va [Maksim Gorkiy](#) suhbatı“ nomli haykal oʻrnatilgan.
- 1958 va 1968-yillardagi SSSR pochta markalaridan biri Sadriddin Ayniyga bagʻishlangan.
- Sadriddin Ayniy portreti Tojikistonning valyutasi — [somoniyning](#) 5 somoniy qiymatidagi kupyurasida aks ettirilgan.

Havolalar[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

- ziyouz.com
- [Pravda Vostoka 16.07.1954](#) ([Wayback Machine](#) saytida 2023-01-07 sanasida [arxivlangan](#))

Manbalar[\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

- ↑ *Jump up to:* 1.0 1.1 1.2 — T. 1. — C. 29.
- ↑ *(unspecified title)*
- ↑ *„Ушла из жизни Лутфия Айни – самая младшая из детей Садриддина Айни“* (ruscha). AVESTA information agency (2023-yil 14-iyul). Qaraldi: 2023-yil 14-iyul.

4. ↑ [\https://lex.uz/ru/docs/2369424 „УКАЗ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН О НАГРАЖДЕНИИ ПОСМЕРТНО МАСТЕРОВ ЛИТЕРАТУРЫ И ИСКУССТВА, ВНЕСШИХ ОГРОМНЫЙ ВКЛАД В РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ“] (2001-yil 22-avgust). Qaraldi: 2023-yil 14-iyul.
5. ↑ Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya: V 30 t. / Predsedatel nauch.-red. soveta Yu. S. Osipov. Otv. red S. L. Kraves. T. 1. A — Anketirovanie. — M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2005. — 766 s.: il.: kart.
6. ↑ „Sadriddin Ayni -- Tajik National Hero“. Qaraldi: 2014-yil 28-avgust.
7. ↑ „Садриддин Айни“. Qaraldi: 2023-yil 14-iyul.
8. ↑ „Sadriddin Aini“. Brockhaus Enzyklopädie. Qaraldi: 2023-yil 14-iyul.

Adabiyotlar [\[tahrir\]](#) | [manbasini tahrirlash](#)

- Hasanov M., Ayniy chamani, T., 1978.
- [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-y

Sadriddin Ayniy Buxoro tavallud topgan. Samarqandda yashab, ijod qilgan. U haqiqatda ikki xalq farzandi edi.

1967 yilda O'zbekiston Hukumati tashabbusi bilan Sadriddin Ayniyning yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan. Muzey ochilganidan beri uning ekspozitsiyasi ikki marta yangilangan. Oxirgi marta yaqindagina, 15-aprel kuni buyuk olimning 140-yilligi munosabati bilan uy-muzeyga Sadriddin Ayniyga tegishli bo'lgan hujjatlar keltirildi.

"Vaqt sinovidan o'tgan do'stlik: tojik va o'zbek xalqi munosabatlari haqida film"

7 Iyul 2017, 13:36

Shuningdek, uy-muzey 2018-yil mart oyi yakunida kichik ta'mirlash ishlari uchun yopilgan. May oyining ikkinchi yarmida esa muzey 2 oyga to'liq ta'mirlash uchun yopiladi.

Yozuvchi va davlat arbobi Ayniy faoliyati bilan yaqindan tanishish, bu uyda nimalar saqlayotganligini bilish maqsadida Sputnik muxbiri yodgorlik muzeyiga tashrif buyurdi.

Muzeyga tashrif buyuradigan odam o'tmishga qaytgandek, hayratda qolishi tabiiy. Axir dunyo tan olgan olim hayot ijodi va o'tmishdagi voqealar bilan yaqindan tanishish imkoniyati har doim bo'lavermaydi.

Memorialniy dom-muzey Sadriddina Ayni, gorod Samarkand

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

"Siz ayni vaqtda keldingiz, 15-20 kundan so'ng muzey to'liq ta'mirlash uchun yopiladi", — deya o'z suhbatini boshladi muzeyda gid sifatida faoliyat yurituvchi Farida Narzullayeva.

Ta'mirlash ishlari masalasiga suhbatimiz davomida yana qaytamiz. Hozir esa zamonaviy o'zbek va tojik adabiyoti asoschisi bo'lgan, Tojikiston qahramoni — Sadriddin Ayniy yashab, ijod qilgan xonalarni ko'zdan kechirishga qaror qildik.

Ikki tilda ijod qilgan yozuvchi, olim Ayniyning yodgorlik uy-muzeyi Samarqand markazida, mashhur Registon maydonining deyarli ro'parasida joylashgan.

"Ustoz" degan mo'tabar nomga loyiq topilgan va e'zozlangan olim Sadriddin Ayniyning Samarqandga kelib qolishi tarixiga nazar tashlaymiz.

...Buxoroda tavallud topgan ma'rifatchi talabalik chog'laridayoq Ahmad Donish yozgan asarlardan ta'sirlangan holda, Yevropacha uslubdagi yangi maktablarni ochish, zamonaviy o'quv dasturlar asosida bolalarni o'qitish kerak degan xulosaga keldi.

Dom muzey Sadriddina Ayni v Samarkande

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Ammo o'sha vaqtlarda Buxoroda hukmron bo'lgan amir erkin fikrlaydigan ma'rifatchilarni ta'qib qila boshlaydi. Shu vaqtlarda, ya'ni 1915-16 yillarda Sadriddin Ayniy Buxoroda yashirinadi.

1917 yil 9-aprelda jadidchilar qo'zg'oloni bo'lgan paytda, Ayniy Buxoroda qo'lga olinadi va 75 darra tayoq o'rish bilan jazolanib, qamoqqa solinadi. Qo'qon gospitalida 2 hafta davolangach, Samarqadda doimiy yashash uchun yo'lga chiqishga qaror qiladi...

"Ustoz Sadriddin Ayniy Samarqandga kelgach, avvaliga do'stlar va qarindoshlar uylarida yashaganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng, 1923-yilda mana shu uy-muzeyning, siz ko'rib turgan o'ng tomondagi birinchi qismini sotib oladi. (Uy ikki qismdan iborat, tahr.) 1930-yillarda esa O'zbekiston Hukumati Sadriddin Ayniyning shaxsan o'zi tuzgan loyihasi asosida uyning mana shu, chap tomondagi qismini pishiq g'ishtdan qurib beradi. Hukumat bu bilan olimga u ijod qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratib bergan edi", — deydi Farida Narzullayeva.

Rabochiy kabinet Sadriddina Ayni

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Samarqandlik ilm ahli Ayniy kelishini juda katta xursandchilik bilan qarshi olishadi. Ayniy yangicha uslubdagi maktablarni ochish borasida o'zbek va tojik ma'rifatchilari bilan faol ish boshlaydi. U vaqtda O'zbekiston va Tojikiston poytaxti Samarqand shahri bo'lgan, Ayniy Samarqanddagi tojik nashriyotida ish faoliyat olib boradi.

Sovet hokimiyatining ilk davrlarida, Tojikiston hali shakllanmagan paytda, tojiklarning millat sifatida mavjudligini inkor etgan kuchlar paydo bo'ladi.

Sadriddin Ayniy o'zining "Tojik adabiyotidan namunalar" nomli kitobi bilan bu bahslarga yakun yasaydi. Bu kitobni u Samarqandda yozadi. Mana shu asari uchun Ayniyga birinchilardan bo'lib Tojikiston Qahramoni unvoni beriladi.

Komnata dlya otdixa, muzey Sadriddina Ayni, gorod Samarkand

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Ayniy ijod qilgan xona odmi, ortiqcha narsaning o'zi yo'q — taxtali stol, lampa, telefon, shuningdek, kitob javoni va divan qo'yilgan...

Bunday kamtarona jihozlangan xonada mutafakkir tojik va o'zbek tillari yozilgan asarlari ustida ish olib boradi.

Aynan shu yerda uning "Odina", "Qul bobo", "Eski maktab", "Sudxo'ning o'limi" qissalari, "Doxunda" va "Qullar" romanlarini yozadi. 1936-yilda yozilgan "Sudxo'ning o'limi" asari katta shuhrat keltiradi. Ushbu asarida Ayniy Buxorodagi feodal tizimni qoralagan.

Farida Narzullayeva so'zlariga ko'ra, shu yerda Ayniy mashhur davlat arboblari — Fayzulla Xo'jayev, Yo'ldosh Oxunboboyev va boshqalar bilan uchrashgan. Shuningdek, o'zbek shoirasi Zulfiya va O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy ko'mitasi birinchi kotibi Sharof Rashidov ham ushbu xonadonda mehmon bo'lishgan. Xona devorida osig'lik suratlar bu haqda "so'zlab" turishibdi...

Dom-muzey Sadriddina Ayni

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Tojikistondan ham mehmonlar kelishadimi, savol beraman gidga. "Albatta, O'zbekiston-Tojikiston chegarasi ochilgandan keyin bir oy ichida juda ziyoratchi, sayyohlar juda ko'p bo'ldi. Haligacha ularning keti uzilgani yo'q..", — degan javobni olaman.

"Tojikiston istiqlolining 10-yilligiga bu kishiga Tojikiston qahramoni unvoni berilgan. Shuning uchun ham u yerdan institut va universitet talabalari, hattoki oddiy aholi ham bu kishining uylari, yashagan joylarini ko'rishga kelishayapti", — davom ettiradi muzey xodimasi.

Farida Narzullayevaning so'zlariga ko'ra, joriy yil 15-aprel kuni mana shu uy-muzeyda ustoz Ayniyning 140-yillik yubileyi katta tantana tarzida nishonlangan. "Mana shu yubiley munosabati bilan uy-muzeyda qo'shimcha ekspozitsiyalar ochildi, mana bu qo'lozma, kitoblar, ustozga tegishli shaxsiy hujjatlar shular jumlasidan", — deydi Farida Narzullayeva.

Suhbat davomida ayol muzeyni ta'mirlash uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 300 million so'm (37 ming dollar, tahr.) mablag' ajratilganligini ma'lum qildi. "Muzey to'liq ta'mirdan chiqariladi, tartibga keltiriladi, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Konsepsiya ishlab chiqilgan.

Yodgorlik majmui tanib bo'las darajada o'zgaradi, chiroy ochadi", — deydi Farida opa.

Dom-muzey Sadriddina Ayni, gorod Samarkand

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Sadriddin Ayniy ushbu uyda 1954-yil may oyigacha yashab, ijod qilgan. Shundan so'ng og'ir xastalikka chalinib, davolanish uchun Tojikistonga borishga majbur bo'lgan. Dushanbeda ikki oy yashab, 15-iyulda vafot etgan. Sadriddin Ayniy Dushanbeda, Ayniy nomidagi bog'da dafn etilgan.

Poxoronniy protsess, v Dushanbe proshayutsya s velikim umom chelovechestva Sadriddinom Ayni

© Sputnik / Dilshoda Raxmatova

Tojikistonda vaqti Ayniy umuman ijodga qo'l urmagan ekan, u kishidan buning sababini so'rashganida: "Men Samarqandga qaytishim kerak. O'zimning yozuv stolimga o'tirib, qalamimni siyohdonimga botirsam, shunda men yangi asar yoza olaman", — deb aytgan ekan Ayniy o'z yaqinlariga...

Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Aynan Sadriddin Ayniy singari buyuk ijodkorlar ikki davlat xalqlari birlashishida o'z hissalarini qo'shganlar.

0

Sadriddin Ayniy hayoti va ijodi

XIX asrning so'nggi choragida tug'ilib, XX asrning o'rtalariga qadar yashab ijod etgan Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shgan zullisonayn yozuvchidir. U mansub bo'lgan yozuvchilar avlodi xalq va jamiyat hayotidan uzoqlashib qolgan mumtoz Sharq adabiyotiga yangi to'lqin berishga, uni yangi tarixiy davrning g'oyalari bilan boyitishga intildi. Shu ma'noda Sadriddin Ayniy va uning qalamkash birodarlari XX asrning 10-yillarida yangi tipdagi o'zbek va tojik adabiyotiga poydevor qo'ydilar.

Sadriddin Ayniy 1878 yili Buxoro viloyatining G'ijduvon tumaniga qarashli Sokter qishlog'ida tug'ildi. O'n bir yoshida ota va onasidan yetim qoldi. Ma'rifatparvar otasi qo'lidadastlabki ta'limni olgan Sadriddin Ayniy 1890–1899 yillarda Buxorodagi madrasalarda tahsil ko'rib, o'z davriga yarasha puxta bilim

egalladi. Kalkutta, Bog'chasaroy, Ufa, Orenburg, Qozon singari shaharlarda nashr etilgan gazeta va jurnallar bilan tanishish, ayniqsa, Fitratning "Munozara", "Sayyoh hind qissasi" singari asarlarini mutolaa etish bo'lajak yozuvchining dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. U amirlik tuzumining chiriganini, mamlakatni boshqarish usulini yangilash, demokratik islohotlar o'tkazish va xalq ommasini ma'rifatlashtirish zarurligini sezdi. Sadriddin Ayniy ana shu tarzda yosh buxoroliklar harakatiga kelib qo'shildi va o'zbek jadid adabiyotining yorqin namoyandalaridan biriga aylandi.

Tavsiya etamiz [Muqimiy \(1850-1903\)](#)

Sadriddin Ayniy o'smirlik yillarida turmush tebratish uchun jismoniy mehnat bilan ko'proq shug'ullangan bo'lsa, ijtimoiy ongida ro'y bergan o'zgarishlar tufayli keyinchalik aqliy mehnat yordami bilan kun kechira boshlaydi. Chunonchi, u tatar maktabida tarjimon bo'lib xizmat etadi. Shu asnoda muayyan malaka hosil qilgan Sadriddin Ayniy do'sti Mirza Abdulvohid bilan birga uning hovlisida maktab ochadi. 1909 yilda esa "Tazhib us-sibiyon" ("Bolalar tarbiyasi") degan o'qish kitobini yaratadi. Yosh muallimning bu dastlabki pedagogik ishlari o'sha davr uchun katta voqea bo'lgani sababli qattiq qarshilikka uchraydi.

Saytga kirish

S

"Imtihonlar boshlangan pallada, – deb yozadi u tarjimai holida, – katta mullalar ig'vo boshlab, bolalarni kofir qiladi, deb bizning maktabimizga qarshi chiqdilar, ular amirga murojaat qilib, maktabimizni yoptirdilar va amirga qarashli bo'lgan kishilar bu bilan ham qanoatlanmay, Mirza Abdulvohidni olomon qilib o'ldirmoqchi bo'ldilar. Ular Buxorodan qochib ketdilar, men bir muncha vaqq yashirib yurdim". Bunday ta'qiblar uzoq davom etdi. 1917 yil Fevral inqilobidan so'ng esa Sadriddin Ayniy faol ijtimoiy harakatdan uzoqlashganiga qaramay amir tomonidan yetmish besh tayoqlik jazoga hukm qilinadi.

Sadriddinning badiiy ijodga qiziqishi talabalik yillarida boshlangan. U dastlab Sifliy (Past), Muhtojiy va Jununiy (Telba), o'n sakkiz yoshida esa "Ayniy" taxallusi bilan ijod qila boshladi.

Tavsiya etamiz [Ahmad al-Farg'oniy \(taxminan 797 – 865 yillar\)](#)

Sadriddin Ayniy asarlari

Sadriddin Ayniyning 1917 yilga qadar yaratgan asarlari u qadar ko'p emas. U garchand inqilobga qadar bo'lgan davrda "Oyna", "Ulug' Turkiston", "Al-isloh", "Hurriyat""Sadoi Turkiston", "Taraqqiy" singari gazeta va jurnallarda o'z she'rlari va maqolalari bilan yosh ijodkor sifatida qatnashadi, vaqt o'tishi bilan jiddiy hayotiy mavzularga qo'l urishga, davrning qon tomirini topishga intiladi. Chunonchi, 1896–1904 yillarda "Guli surx", "Bazm" singari katta mazmundan xoli she'rlarni yozgan bo'lsa, keyinchalik yaratgan "Yoshlarga murojaat", "Hasrat", "Na o'ldi, yo rab!", "Moziy va hol", "Yerni yana sotmang" singari she'rlarida jadid adabiyotining nafasi ufurib turadi. "Ustoz Ismoilbek janoblari" degan marsiyada esa Sadriddin Ayniy jadidchilik harakatining otasi Ismoil G'aspirali vafoti munosabati bilan musulmon Sharqi o'zining buyuk rahnamalaridan biridan mahrum bo'lganini aytadi.

Sadriddin Ayniy 1917 yilga qadar kechgan ijodida, boshqa jadidlar singari maqolanavislik (publitsistika) bilan ham samarali shug'ullandi. Uning "Oyna" jurnalida chop etilgan "Har bir millat o'z tili ila faxr etar" degan maqolasi muallifning 1915 yildayoq Turkiston xalqlari o'rtasida o'zbek tilining mavqeini ko'tarish vazifasini o'z oldiga qo'yganini namoyish etdi. U shu davrda nazariy xarakterdagi ishlar bilan band bo'lib qolmay, fors-tojik tilida "Buxoroi sharif", o'zbek tilida "Turon" gazetalarini nashr etishning tashabbuskorlaridan biri bo'ldi.

"Ushbu ikki gazeta, – deb yozgan edi Sadriddin Ayniy, – Italiya va Bolqon muhorabasi asnosida nashr bo'lg'onlaridan har bir narsadan xabarsiz Buxoro aholisini tarihdan, siyosatdan, jug'rofiyadan, Ovro'poning umumiy ahvolidan, musulmonlarning halokat chuquriga tushayotganlaridan xabardor qildilar. Yoshlar boshiga adabiyot, qalam va o'qimoq fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o'qitmoq hollari keldi".




Tavsiya etamiz [O'tkir Hoshimov \(1941–2013\)](#)


Sadriddin Ayniyning dastlabki ijodiy faoliyati to'g'risida so'z borar ekan, 1909–1910 yillarda tuzilgan "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini chetlab o'tish mumkin emas. Sadriddin Ayniy ishtirokida tuzilgan bu jamiyat o'z oldiga, birinchidan, keng xalq ommasi orasida maorif va turli adabiyotlarni tarqatish, ikkinchidan, isrofgarchilikka, maishatparastlikka va boshqa nojo'ya urf-odatlariga qarshi kurash, uchinchidan esa hukumatga qarshi keng tashviqot ishlarini olib borish vazifasini qo'ygan.

Xullas, Sadriddin Ayniy bu davrdagi ijodi va tashkilotchilik faoliyati bilan o'zbek jadidchilik harakati va jadid adabiyotining shakllanishida muhim ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Uning bu boradagi xizmatlari Sadriddin Ayniy ijodiy faoliyatining munavvar sahifalaridan birini tashkil etadi.



SADRIDDIN AYNIY ADABIYOTLARI:





foydalangan adabiyotlar: internet nanbalari

PAHTAKOR TAKM

PAXTAKOR TAKM